XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-139-11-155-K/25 Dang‘ara tumani

Dang‘ara tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25 dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Farg‘ona Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/07-17/10012-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Dang‘ara tuman budjetining 2026- yilgi daromadlari **145.2 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **145.2 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **715 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy

budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1.8 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar 5-ilovaga;

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining 1 kvadrat metri uchun eng kam stavkalari koeffitsiyenti 6-ilovaga;

Tuman bo‘yicha 2026-yil uchun Suv solig‘i stavkasi koeffitsiyenti 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Usmonov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (K.Latipov), tuman soliq inspeksiyasi (T.Arzimatov) bilan birgalikda 2026- yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

-budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

-o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

-budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

-tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

-o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

-budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (I.Ergashev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Usmonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **TOJIXAKIMOV SHUXRATJON NURMUXAMMADOVICH**

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-139-11-155-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026- yil uchun Dang‘ara tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so’m

№	Daromad turlari	Dang‘ara tumani
	JAMI	**145,206,300**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2,994,000
2	Foyda solig‘i	2,083,000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	9,387,000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	58,256,000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1,435,000
	Aksiz solig‘i jami	9,613,000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*9,613,000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4,528,000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	12,970,000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12,620,000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22,434,000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	267,000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3,614,800
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	5,588,000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-2,235,200
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	2,372,700
15	Yig‘imlar	616,800
16	Jarimalar	1,858,000

17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	157,000

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-139-11-155-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026- yil uchun Dang‘ara tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Dang‘ara tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	**145,206,300**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*63,326,796*
	shundan:	*x*
	"Mening maktabim"	*2,533,800*
2	Madaniyat bo‘limi	*6,475,954*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*5,305,054*
4	Sport bo‘limi	*4,724,002*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1,404,020*
6	Qishloq xo‘jaligi sohasi	*2,998,302*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*2,039,280*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2,509,353*
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*159,495*
10	Hokimiyat	*37,109,074*
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*0*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
	Madaniyat bo‘limi	*0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*0*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*20,501,542*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1,545,815*
	Zahira jamg‘armasi	*1,871,567*

11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1,097,337*
	shundan:	*x*
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*94,337*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1,003,000*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	18,057,633
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-139-11-155-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	MFYlar nomi	2026- yil	
			Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi
1	Dang‘ara t	Uvaysiy	1.12	48,886.0
2	Dang‘ara t	Pishqaron	1.12	48,886.0
3	Dang‘ara t	Navbaxor	1.12	48,886.0
4	Dang‘ara t	Chinobod	1.12	48,886.0
5	Dang‘ara t	G‘umoyli	1.12	48,886.0
6	Dang‘ara t	Oltiqo‘sh	1.12	48,886.0
7	Dang‘ara t	Teliming	1.12	48,886.0
8	Dang‘ara t	Naymancha	1.12	48,886.0
9	Dang‘ara t	Minglar	1.12	48,886.0
10	Dang‘ara t	Aravon	1.12	48,886.0
11	Dang‘ara t	Qashqar	1.04	45,425.0
12	Dang‘ara t	Targ‘ova	1.04	45,425.0
13	Dang‘ara t	Raxmatillo	1.12	48,886.0
14	Dang‘ara t	Boybo‘ta	1.04	45,425.0
15	Dang‘ara t	Tumor	1.04	45,425.0
16	Dang‘ara t	Qum Qiyali	1.04	45,425.0
17	Dang‘ara t	Qiyali	1.04	45,425.0
18	Dang‘ara t	Istiqlol	1.04	45,425.0
19	Dang‘ara t	Taypoq	1.04	45,425.0
20	Dang‘ara t	Uymovut	1.04	45,425.0
21	Dang‘ara t	Qirqlar	1.12	48,886.0
22	Dang‘ara t	Arziktepa	1.12	48,886.0
23	Dang‘ara t	Yangi zamon	1.12	48,886.0
24	Dang‘ara t	Qizilmusht	1.12	48,886.0
25	Dang‘ara t	Katta amirobod	1.12	48,886.0

26	Dang‘ara t	Sanam	1.12	48,886.0
27	Dang‘ara t	Mang‘it	1.12	48,886.0
28	Dang‘ara t	Soy shildir	1.12	48,886.0
29	Dang‘ara t	Oqtepa	1.12	48,886.0
30	Dang‘ara t	Shopo‘lat	1.12	48,886.0
31	Dang‘ara t	Katta boybucha	1.12	48,886.0
32	Dang‘ara t	Qiyali qo‘rg‘oncha	1.12	48,886.0
33	Dang‘ara t	Yashik	1.12	48,886.0
34	Dang‘ara t	Bo‘riqum	1.12	48,886.0
35	Dang‘ara t	Qora mulla	1.12	48,886.0
36	Dang‘ara t	Urganji	1.12	48,886.0
37	Dang‘ara t	Oqjar	1.04	45,425.0
38	Dang‘ara t	Taptiqsaroy	1.04	45,425.0
39	Dang‘ara t	Kapasaroy	1.04	45,425.0
40	Dang‘ara t	Abdusamad	1.04	45,425.0
41	Dang‘ara t	Doimobod	1.04	45,425.0
42	Dang‘ara t	Bog‘ish	1.04	45,425.0
43	Dang‘ara t	Katta turk	1.04	45,425.0
44	Dang‘ara t	Kichik turk	1.04	45,425.0

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-139-11-155-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘m)
1	Dang'ara tumani	Uvaysiy	1.20	494.0
2	Dang'ara tumani	Pishqaron	1.20	494.0
3	Dang'ara tumani	Navbaxor	1.20	494.0
4	Dang'ara tumani	Chinobod	1.20	494.0
5	Dang'ara tumani	G‘umoyli	1.20	494.0
6	Dang'ara tumani	Oltiqo‘sh	1.20	494.0
7	Dang'ara tumani	Teliming	1.20	494.0
8	Dang'ara tumani	Naymancha	1.20	494.0
9	Dang'ara tumani	Minglar	1.20	494.0
10	Dang'ara tumani	Aravon	1.20	494.0
11	Dang'ara tumani	Qashqar	1.04	428.0
12	Dang'ara tumani	Targ‘ova	1.05	433.0
13	Dang'ara tumani	Raxmatillo	1.20	494.0
14	Dang'ara tumani	Boybo‘ta	1.13	466.0
15	Dang'ara tumani	Tumor	1.00	412.0
16	Dang'ara tumani	Qum Qiyali	1.00	412.0
17	Dang'ara tumani	Qiyali	1.04	428.0
18	Dang'ara tumani	Istiqlol	0.94	387.0
19	Dang'ara tumani	Taypoq	1.05	433.0
20	Dang'ara tumani	Uymovut	1.00	412.0
21	Dang'ara tumani	Qirqlar	1.13	466.0
22	Dang'ara tumani	Arziktepa	1.13	466.0
23	Dang'ara tumani	Yangi zamon	1.15	474.0

24	Dang'ara tumani	Qizilmusht	1.15	474.0
25	Dang'ara tumani	Katta amirobod	1.15	474.0
26	Dang'ara tumani	Sanam	1.15	474.0
27	Dang'ara tumani	Mang‘it	1.20	494.0
28	Dang'ara tumani	Soy shildir	1.15	474.0
29	Dang'ara tumani	Oqtepa	1.05	433.0
30	Dang'ara tumani	Shopo‘lat	1.05	433.0
31	Dang'ara tumani	Katta boybucha	1.05	433.0
32	Dang'ara tumani	Qiyali qo‘rg‘oncha	1.05	433.0
33	Dang'ara tumani	Yashik	1.05	433.0
34	Dang'ara tumani	Bo‘riqum	1.05	433.0
35	Dang'ara tumani	Qora mulla	0.94	387.0
36	Dang'ara tumani	Urganji	0.94	387.0
37	Dang'ara tumani	Oqjar	0.94	387.0
38	Dang'ara tumani	Taptiqsaroy	0.94	387.0
39	Dang'ara tumani	Kapasaroy	0.94	387.0
40	Dang'ara tumani	Abdusamad	0.94	387.0
41	Dang'ara tumani	Doimobod	0.94	387.0
42	Dang'ara tumani	Bog‘ish	0.94	387.0
43	Dang'ara tumani	Katta turk	0.94	387.0
44	Dang'ara tumani	Kichik turk	0.94	387.0

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-139-11-155-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi

so‘mda

Hududlar	**Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi**		**G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar**	
	Koeffitsiyent	**Mutloq qiymat**	**Koeffitsiyent**	**Mutloq qiymat**
Dang‘ara tumani	1.05	5,618.0	1.05	5,190.0

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-139-11-155-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining 1 kvadrat metri uchun eng kam stavkalari

so‘mda

№	Hudud nomi	2026- yil uchun			
		1 m.kv turar joylar uchun		1 m.kv noturar joylar uchun	
		Koeffitsiyent	Yakuniy stavkasi	Koeffitsiyent	Yakuniy stavkasi
1	Dang‘ara tumani	1.05	6,195.00	1.05	12,390.0

Dang‘ara tumani bo‘yicha suv solig‘i stavkasi to‘g‘risida

so‘mda

T/r	Hududlar	2026- yil uchun							
		Iktisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun Alkogolsiz ichimlik larni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulot larini ishlab chiqarish uchun Avtotransport vositalarini yuvish uchun				Alkogolsiz ichimlik larni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun		Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
		Yer usti		Yer osti					
		Koeffitsiyent	Stavka	Koeffitsiyent	Stavka	Koeffitsiyent	Stavka	Koeffitsiyent	Stavka
1	Dang‘ara tumani	1.12	839.0	1.12	1,019.0	1.07	43,506.0	1.12	17,976.0